



## “VOMIQ VA AZRO” DOSTONINING TARIXIY ILDIZLARI

**Muallif:** Ma‘murjon Mamayusupov Muxtorjonovich <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, mustaqil izlanuvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20226131>

### ANNOTATSIYA

Sharq mumtoz adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan dostonlar alohida o‘rin tutadi. “Vomiq va Azro” dostoni ham ana shunday mashhur ishqiyl asarlardan biri bo‘lib, u “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” singari dostonlar qatorida turadi. Mazkur asar ko‘plab ijodkorlar tomonidan qayta-qayta ishlangan bo‘lib, har bir variant o‘zining syujet va g‘oyaviy xususiyatlari bilan muayyan darajada originallikka ega. Dostonning keng tarqalganligi va ko‘p variantlilikligi uning nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlari diqqat markazida bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shu bois “Vomiq va Azro” dostoni genezisini o‘rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** “Vomiq va Azro”, arab adabiyoti, fors adabiyoti, Sharq adabiyoti, genezis, yozma va og‘zaki ijod, tarjima.

“Vomiq va Uzro” mavzusi Sharq adabiyotida juda qadimdan mavjud bo‘lib, uni yunon yoki islomgacha bo‘lgan davrga taalluqli yodgorlik ekani aytiladi. Darhaqiqat, bu mavzuga turli davrlarda turli xalq ijodkorlari murojaat qilishgan. “Vomiq va Azro” qissasi fors tilidagi hikoyalardan biridir, ammo uning asl manbayi arab tiliga borib taqaladi. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, bu qissa “Urva va Afra” kabi arab sevgi hikoyalaridan olingan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayrim manbalarda bu qissa dastlab nazm shaklida bo‘lmagan, keyinchalik esa turli shoirlar tomonidan qayta ishlanib, she‘riy shaklga keltirilganligi aytiladi. Hozirgi shaklda mavjud bo‘lgan “Vomiq va Azro” hikoyasi esa fors tiliga tarjima qilingan ko‘rinishidir. Ayrim olimlarning fikricha, bu hikoya dastlab arab tilida yaratilgan va keyinchalik fors tiliga tarjima qilingan.

Ba‘zi boshqa tadqiqotchilar esa bu qissaning aslida arab tiliga tegishli ekanini aytadilar. “Yusuf va Zulayho” qissasi kabi bu hikoya ham sodda va ravon uslubda bayon qilingan bo‘lib, undagi ayrim qismlar yunon tilidan olingan, deyishadi. Shuningdek, “oshiq” va “ma’shuq” kabi so‘zlar ham yunon tilidan arab tiliga kirib kelgan va keyinchalik “Vomiq” va “Azro” nomlari bilan bog‘langan, deb hisoblaydilar. “Vomiq va Azro”ning fors tilidagi nusxalari mashhurroq. Asarning, ehtimol, fors tilidagi nusxalaridan namunalar saqlanib qolgani uchundir shunday bo‘lsa kerak.

Bu hikoyaning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba‘zilar uni “Manija va Bijan” hamda “Vis va Romin” kabi qadimgi Eron afsonalariga o‘xshash deb hisoblaydilar. Ayrimlar, bu qissa aslida arab hikoyasi bo‘lib, uni Sahl ibn Harun yaratgan va birinchi bo‘lib shu haqda kitob yozgan. Ular fikricha, undan oldin “Vomiq va Azro” nomli kitob mavjud bo‘lmagan. Shuning uchun bu asar faqat uning asarlari ro‘yxatida zikr qilingan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bu hikoya dastlab arab tilida

bo'lgan, keyin esa fors tiliga o'girilgan. Ayrimlar esa uni fors tilida yaratilgan deb ham aytadilar. Shuningdek, mashhur tarixchi Hamdulloh Mustavfiy ham bu oshiq va ma'shuqni qadimgi zamon hukmdorlaridan deb hisoblaydi va ularni o'z asarlarida eslatib o'tadi. Ayrim tadqiqotchilar esa bu asarning aslida yunon tilidan olinganini va keyinchalik arab tiliga tarjima qilinganini ta'kidlaydilar.

Bu dostoni Sharq xalqlari adabiyotidagi ham mashhur asarlardan hisoblanadi. Doston "Varqa va Gulshoh", "Yusuf va Zulayho", "Tohir va Zuhro", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi asarlar qatorida turli davrlarda ko'plab ijodkorlar tomonidan yozilgan. "Vomiy va Azro" dostoni ham ko'plab ijodkorlar tomonidan ijodiy tarjima qilingan yoki qaytadan yozilgan. Biroq ularning har biri syujet va g'oya jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, bu asarlar Sharq adabiyoti rivojida chuqur iz qoldirgan. Dostonning keng tarqalganligi va ko'p variantlilikligi uning nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari diqqat markazida bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu bois "Vomiy va Azro" dostoni genezisini o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, "Vomiy va Azro" dostoni syujeti juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida ham: *"Yana hikoya qilishlaricha, abbosiy xalifalar davrida Xuroson amiri bo'lgan amir Abdulloh ibni Tohir bir kuni Nishopurda o'tirgan edi, bir kishi bir kitob keltirib, tuhfa sifatida uning oldiga qo'ydi. So'radi: "Bu qanday kitob?" Dedi: "Bu "Vomiy va Azro" qissasi. Donishmandlar yaxshi hikoya bo'lgani sababli shoh No'shiravon uchun jam qilganlar". Amir dedi: "Biz Qur'onxon xalqmiz, Qur'on va Payg'ambar (s.a.v) hadisidan boshqa biror narsani xohlamasmiz. Biz uchun bunday kitobning keragi yo'q, bu mug'lar (zardushtiyar)ning kitobi, shu bois biz tomondan rad etilgan"* [4:56]. U kitobni suvga uloqtirishni buyurdi va mamlakatning qayerida ajamlar va zardushtlar yozgan kitoblar bo'lsa, barchasini kuydirlsinlar deb hukm qildi. Shu boisdan somoniy davrigacha ajam she'rlarini ko'rmadilar, agar ahyon-ahyon she'r aytgan bo'lsalar ham devon holiga keltirmadilar [4:56]. Ko'rinadiki, "Vomiy va Azro" dostoni ilk variantining taqdiri ana shunday kechgan.

"Vomiy va Azro" dostoni XI asrda Unsuriy tomonidan yangidan qayta ishlangan. Unsuriy Firdavsiy zamondoshi bo'lib, o'z davrining yirik adiblaridan biri hisoblanadi. Biroq Unsuriyning bu dostoni to'liq holda bizgacha yetib kelmagan, faqat ayrim parchalarigina saqlanib qolgan. Sharqshunos olim Muhammad Shafi' tomonidan Kembrijda o'tkazilgan xalqaro kongressda ushbu parchalar haqida ma'lumot berilgan. Ma'lum bo'lishicha, saqlangan qism 316 baytdan iborat bo'lib, dostonning o'rta qismiga tegishlidir [4:56-57].

XVI asrda esa "Vomiy va Azro" dostonini Lomeiy ham yozadi. Manbalarda Lomeiy bu asarni turk tiliga tarjima qilgani, umuman, bu mavzuda 13 ta asar yozilgani aytiladi. Bu asarning yana bir qo'lyozma nusxasi 1833-yilda sharqshunos olim Y.Hammer tomonidan topilib, Vena kutubxonasi topshirilgan [4:58].

Ta'kidlash kerakki, turkiy adabiyotdagi "Vomiy va Azro" syujeti dastlab arab adabiyotida shakllangan bo'lib, keyinchalik fors adabiyotiga o'tgan. Aynan fors adabiyotida, xususan, Unsuriy tomonidan yaratilgan dostonning forsiy varianti keyingi mualliflar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Lomeiy Chalabiy ushbu an'anani davom ettirib, asarni Usmonli adabiy muhiti talablariga moslab qayta yozgan. Lomeiy asarida asosan, Vomiy va Azroning pok va samimiy muhabbati yetakchi o'rin tutadi. Ular o'rtasidagi sevgi jamiyat va taqdir sinovlari bilan to'qnash keladi. Shuningdek,

Lomeiy asarida muhabbat insonni ruhiy kamolotga yetaklovchi kuch ekanligi, unda ilohiy ishq ramziy tarzda ifodalangani tasvirlanadi.

Bu doston turkiy xalqlar adabiyotida ishqiy-didaktik dostonlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. U nafaqat saroy adabiyotida, balki xalq og'zaki ijodida ham qayta ishlangan. Jumladan, uyg'ur shoiri Abdurahim Nizoriy ham "Muhabbat dostonlari" to'plamiga "Vomiq va Azro" dostonini kiritgan. Tadqiqotchilarga ko'ra, bu asar tarjima emas, balki uyg'ur tilida yaratilgan original variant hisoblanadi [3:10]. Garchi bu doston turli mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, uning turkiy (o'zbek) tilidagi variantlari to'liq tadqiq etilgani yo'q.

"Vomiq va Azro" dostoni Xorazmda ham nasriy va she'riy yo'lida Mag'furxo'ja Xorazmiy va Ahmad Tabibiylar tomonidan qayta yozilgan. Adabiyotshunos F.G'anixo'jayevning ma'lumot berishicha, dostonning Xorazm variantlari uchun Zohir Kirmoniy tomonidan yozilgan variant asos bo'lgan. XVIII asr fors adabiyoti vakili Zohir Kirmoniy ham "Vomiq va Azro" dostonini yozgan. Muallif asarining o'ziga xosligi Kirmoniy dostonida xalq og'zaki ijodiga xos afsonalardan ijodiy foydalanganidir. Shoir afsonani tarix bilan, ishqiy sarguzashtlarni davrning ijtimoiy masalalari bilan bog'laydi. Kirmoniyning dostoni fors tilida nasr yo'lida yozilgan bo'lib, bu asar 1880, 1853, va 1901-yillarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan [4:59].

XIX-XX asrlar boshi Xorazm adabiy muhitiga xos yetakchi xususiyatlardan biri – tarjimachilik hisoblanadi. XIX asr o'rtalarida Mag'furxo'ja Sayid Hasan Xorazmiy Zohir Kirmoniy tomonidan yozilgan "Vomiq va Azro" dostonini o'zbekchaga tarjima qiladi. Dostonning o'zbekcha tarjimasini ancha muvaffaqiyatli chiqqani, tili sodda va obrazli ekani uning muvaffaqiyatli chiqqanining asosiy sabablaridan bo'lgan. Shuning uchun bu kitob (Mag'furxo'ja tarjimasini – M.M.) bir necha bor – 1840, 1895, 1902 va 1911-yillarda qayta ko'chirilgan. Dostonning bu nusxalari O'zR FASHI fondida 1228, 5072, 6911, 6918, 7472-raqamlari bilan saqlanadi [4:59]. Bu nusxalar ichida 6911-raqamli qo'lyozma eng mukammal hisoblanadi. Dostonning bu nusxasi juda chiroyli kitobat qilingan, matn ham juda xushxat. Dostonning kirish qismi matnida juda ko'plab oyat va hadislar keltirilganki, bu hol asarni hukdorga yoki saroy kutubxonasiga tuhfa qilish uchun tayyorlanganini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Mag'furxo'ja tomonidan ham, Tabibiy tomonidan ham yozilgan asarlarni aynan tarjima deb bo'lmaydi. Bu asarlarni ijodiy-erkin tarjima deyish yoki mustaqil asar sifatida baholash mumkin. Sababi ularda ijodkorning o'ziga xos uslubi yaqqol ajralib turadi. Qolaversa, ijodkor yaratayotgan asarini o'z davriga moslashtiradi, ko'proq hukmdorlar madhi va ularning siyosati madhiga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, 1910-yilda Ahmad Tabibiy ham bu mavzuga qo'l uradi. Ya'ni "Vomiq va Azro" dostonining she'riy variantini yozadi. Ahmad Tabibiy tomonidan yaratilgan dostonning she'riy varianti o'zbek yozma adabiyotidagi eng mukammal namunalardan biri hisoblanadi. Mazkur doston hijriy 1328 (1910)-yilda yozilgan bo'lib, taxminan 16200 misra, 81 bob va 386 betdan iborat. Asar Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko'chirilgan.

Tabibiy dostoni xalq og'zaki ijodi va yozma an'analarni uyg'unlashtirgan holda yaratilgan bo'lib, u mazkur syujetning o'zbek adabiyotidagi eng yetuk talqinlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotlarda Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostoni hajman juda katta bo'lib, u taxminan 16200 misradan iborat [4:60] ekani aytiladi. Doston mazmun va shakl jihatidan ham, badiiy jihatdan ham yuksak darajada ijod etilgan. Asarning yuqori

saviyada yozilishida shoirning Navoiy asarlaridan unumli foydalangani ham qo'l kelgan.

Xulosa qilib aytganda, "Vomiq va Azro" dostoni Sharq musulmon adabiyotining ma'lum va mashhur adabiy namunalardan hisoblanadi. Dostonning arab, fors va turkiy tillardagi variantlarini qiyosiy o'rhganish, avvalo, dostonning to'liq matniy tahlilini amalga oshirish, shu asosda asarning adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish dolzarb hisoblanadi. Negaki, "Vomiq va Azro" dostoni qadimiy ildizlarga ega bo'lib, uning syujeti bir nechta davr va xalqlar adabiyotida qayta talqin qilingan. Fors-tojik, turk, uyg'ur va o'zbek adabiyotidagi variantlar asarning universalligi va badiiy qudratini namoyon etadi. XX asr o'zbek she'riy varianti esa uning eng mukammal talqinidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 3461, 3460/IV, 1243, 1078 raqamli qo'lyozmalar.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print. 2023. – 258 b.
3. Фанихўжаев Ф. Танланган асарлар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. – 314 б.
4. Фанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – 120 б.
5. Muhammad Taqiy Tarbiyat. <https://youtu.be/3IV9-CPnYQE?si=4Z8B9Dq7zrw1m8WU>.